



O'QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIK DARAJASI

Rafikova Dilafruz Kaxxoraliyevna

Farg'onan davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizda shakllangan pedagogik ta'limgiz tizimi, o'qituvchilik kasbining shakllanishi va rivojlanishi, o'qituvchilik faoliyati asosiy komponentlari, o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining pedagogik kompetentlik darajasiga, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida o'qituvchilik kasbi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'limgiz tizimi, o'qituvchilik kasbi, pedagogik kompetentlik, kasbiy va pedagogik faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar, kompetensiya.

РЕДАКЦИОННАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ УРОВЕНЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА

Аннотация: В данной статье представлены сведения о системе редакционного образования, сформировавшейся в нашей Республике, становлении и развитии профессии учителя, основных принципах педагогической деятельности, уровне редакционной компетентности профессии учителя, профессии учителя на современном этапе. развития общества.

Ключевые слова: система образования, педагогическая профессия, редакционная компетентность, профессионально-редакционная деятельность, информационно-коммуникационные технологии, редакционные программно-технические средства, компетентность.

EDITORIAL COMPETENCE LEVEL OF TEACHING PROFESSIONAL TRAINING

Abstract: This article provides information about the editorial education system formed in our Republic, the formation and development of the teaching profession, the basic principles of teaching activity, the level of editorial competence of the teaching profession, and the teaching profession at the current stage of the development of society.

Key words: educational system, teaching profession, editorial competency, professional and editorial activity, information and communication technologies, editorial software and tools, competency.



KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lif tizimi isloh qilinib, ISCI 88 va ISDEC 97 xalqaro standartlar asosida talabalarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlar va zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotlarni tizimli va izchil kompleks joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lif tizimini yanada rivojlantirish, ta'lif xizmatlari imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Natijada samarali ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi kadrlarga bo'lgan obyektiv ehtiyojini hisobga olib, talabalarining amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Respublikamizda shakllangan pedagogik ta'lif tizimi boy an'analarga, ko'p yillik intensiv amaliyotda to'plangan katta tajribaga ega. Shu bilan birga, pedagogik ta'lifni modernizatsiyalash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun boshqaruv kadrlari va malakali o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, ayniqsa, muammo bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'qituvchilik kasbining shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyat, texnika, texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqalarning taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. O'qituvchiga xos bo'lgan mas'uliyatli vazifalar undan o'z kasbining ustasi bo'lishni, kasb-korini muntazam rivojlantirishni, ta'lif oluvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning yangi metodlarini o'zlashtirishni, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy tayyorgarligini har tomonlama takomillashtirib borishni talab qiladi.

Ko'plab zamonaviy ilmiy-pedagogik tadqiqotlar, xususan, N.N.Azizzodjayeva, B.R.Adizov, R.H.Djurayev, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Sh.Shodmonova, N.M.Egamberdiyeva, O.A.Quysinovlarning ilmiy ishlarida o'qituvchilik kasbining rivojlanishi, ularning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning falsafiy, tarixiy, psixologik-pedagogik omillari tavsiflangan. Pedagogik faoliyat tushunchasi mazmunining o'zgarishi mehnat tuzilmasi, komponentlarining murakkablashishi bilan bir qatorda jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ijtimoiy tabaqalanishi va ijtimoiy mobilligi haqidagi g'oyalarni rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liq. O'qituvchilik kasbi talablari Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, E.A.Klimov, A.A.Xolikov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'qituvchining o'z kuchini ta'lif-tarbiya ishlariga yo'naltirish sohasi, o'zining shaxsini namoyon etish faoliyati, tarixiy rivojlanuvchi tizim, ijodiy shakllangan reallik sifatida tavsiflanadi. O'qituvchilik kasbi ixtisoslashtirilgan faoliyat turi sifatida ham talqin etiladi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida o'qituvchilik kasbi haqida gapirganda, shuni ta'kidlash joizki, u tarixiy va shu bilan birga zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy aspektlarda rivojlanayotgan yaxlit hodisadir. U pedagogik mehnat



sohasi(tarmoqlari)da, kasbiy pedagogik faoliyat turlarida, kasb instituti yoki pedagoglarning kasbiy hamjamiyatida yuz bergan o'zgarishlar bilan xarakterlanadi.

E.V.Balakireva[4]ning pedagogik kasbshunoslik (professiologiya)ga bag'ishlangan ishlarida o'qituvchilik kasbining tuzilishi, ya'ni uning umumiy xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, mehnat sharoitlari, pedagogik faoliyatning xususiyati va mazmuni, pedagogik mahorat, o'qituvchining ta'lif darajasi va kasbiy malakasiga qo'yiladigan talablar, kasbning psixofiziologik o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar aks etgan[4; 134-147-b.].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizningcha, o'qituvchilik kasbi - bu katta avlodlarning insoniyat tomonidan to'plangan madaniyat va tajribalarni yosh avlodlarga uzatishga, ular shaxsining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga va ularni jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajara olish tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turidir. O'qituvchining kasbiy faoliyati tuzilishi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uning asosiy o'ziga xos xususiyati mehnat obyekti va vositalarining o'ziga xosligi bilan belganishini ta'kidlab o'tish joiz.

O'qituvchilik faoliyati uchta asosiy komponentdan tashkil topadi:

- amaliy (ta'lif oluvchilar faoliyati shakllarini ishlab chiqish, yuzaga kelgan pedagogik vaziyatga oid masalalarni hal etish);
- tashkiliy (jamoani tashkil etish va hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish);
- kommunikativ (o'qituvchining ta'lif oluvchilar va hamkasblari, rahbariyat, ota-onalar bilan o'zaro munosabat o'rnatishi va muntazam aloqada bo'lishi)

O'qituvchi kasbiy tayyorgarligining pedagogik kompetentlik darajasiga mos kelishi masalasi murakkab hisoblanadi. Pedagogik kompetentlik, o'qituvchilik kasbining rivojlanishiga o'z darajasi va xususiyatiga ko'ra, ijtimoiy-madaniy muhit, tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning shaxsiy-psixologik sifatlari, qiziqish-mayli, temperamenti, asab tizimi, ruhiy faoliyati va fe'l-atvori kabilar ichki omillar sirasiga kiradi. Pedagogik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni, mazmunining kasb xususiyatiga to'g'ri kelishi, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshirishning sifat va miqdor tarkibi, ta'lif jarayoni shakli, zamon talablariga mos moddiy-texnik baza, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalar, belgilangan o'quv vazifalari tashqi omillar hisoblanadi.

So'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi, bu pedagogik kadrlar tayyorlash muammosiga, o'qituvchilik kasbining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Oliy ta'lif tizimini isloh qilish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida qator (2019 yil 8 oktabrdagi PQ-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida", 2020 yil 2 martdag'i PF-5953-son "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lif tizimini yanada



rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalgalashirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil-27-fevraldagagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror va farmonlar qabul qilindi[1;2;3;].

Ushbu qaror va farmonlarda kasbiy va pedagogik faoliyatga (vazifalar, kompetensiyalar) hamda o'qituvchining shaxsiga, o'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Ana shunga bog'liq holda, o'qituvchining kengaytirilgan ta'lim muhiti subyektlari bilan ijtimoiy o'zaro aloqalarni o'rnatishga qaratilgan funksiyalarini ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning yangi funksiyalarini muvaffaqiyatli amalgalashirish uchun bo'lg'usi o'qituvchilar ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarini rivojlantirishlari hamda ijtimoiy o'zaro munosabatga kirisha olish bo'yicha muayyan kompetensiyalarni egallashlari zarur.

XULOSA

O'qituvchilik kasbi qadriyatlari, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari yanada o'zgarib, ta'lim sohasida moderator, tyutor, loyiha asosida o'qitish tashkilotchisi, onlayn platforma ta'lim koordinatori, startaplar metori (ustozi), o'zin texnologiyalarini tashkil etish bo'yicha usta, o'zin texnologiyalarini vositada tarbiyalovchi, ta'lim traektoriyalarini ishlab chiquvchi, maynd-fitnes (aql-idrokni rivojlantirish) bo'yicha murabbiy, ong holatlariga o'rgatish vositalarini ishlab chiquvchi kabi yangi tushunchalar paydo bo'lmoqda.

Ana shularga asoslanib aytish mumkinki, mehnat bozori sharoitida o'qituvchilardan quyidagi kompetensiya turlari talab etilmoqda: boshqarish (menejmentlik) va tashkilotchilik kompetensiyalar, tadbirkorlik kompetensiyalar, axborot va texnik kompetensiyalar, animatorik kompetensiyalar, psixologik kompetensiyalar, smart-kompetensiyalar (ongni boshqarish bilan bog'liq kompetensiyalar). Bunday kompetensiyalarning asosini maqsadga intiluvchanlik va tashabbuskorlik, yetakchilik qobiliyati, ishbilarmonlik, muloqot o'rnatish va taqdimot yaratish qobiliyatlari, safarbarlik va tavakkalchilik, stresslarga chidamlilik va hissiy barqarorlik, o'zini boshqara bilish va boshqa sifatlar tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalgalashirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori. 2018 yil 5 iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori //



O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

4. Балакирева.Э.В. Подходы к построению концепции профессиологических основ педагогического образования // Известия РГПУ им. А.И.Герцена. - 2005. - № 5 (12). - С.134-147.

5. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.

6. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.

7. Азимов У. А., Тожибоева Г. А. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ДЕМОКРАТИК ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА АКСИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-1 (90). – С. 694-698.

8. Азимов У. А., Умурзаков А. М., Абдурахмонов Г. З. Духовное мировоззрение и его влияние на национальные ценности //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 19-3 (73). – С. 62-64.